

O'ZBEKİSTON OLİY TA'LIM XİZMATLARI BOZORIDA RAQOBAT MUHİTİ TAHLİLİ

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston oliy ta'lism xizmatlari bozorida raqobat muhitini tahlili amalga oshirilgan. Bunda oliv ta'lism xizmatlari bozorida raqobat muhitini ifodalovchi ko'rsatkichlarning dinamikasi va hududlar kesimidagi qiyatlari qiyosiy tahlili asosida ilmiy xulosalar keltirilgan. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, oliv ta'lism tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Olyiv ta'lism xizmatlari, ta'lism bozori, raqobat muhitini, nodavlat oliv ta'lism muassasalari, oliv ta'lism tizimi, jozibadorlik, infratuzilma, raqobatbardoshlik.

АНАЛИЗ КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ НА РЫНКЕ УСЛУГ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Абстрактный. В статье анализируется конкурентная среда на рынке услуг высшего образования Узбекистана. При этом представлены научные выводы на основе сравнительного анализа динамики показателей, отражающих конкурентную среду на рынке услуг высшего образования, и их значений в разрезе регионов. По результатам анализа разработаны научные предложения и рекомендации по приоритетным направлениям развития системы высшего образования.

Ключевые слова. Услуги высшего образования, рынок образования, конкурентная среда, негосударственные вузы, система высшего образования, привлекательность, инфраструктура, конкурентоспособность.

ANALYSIS OF THE COMPETITIVE ENVIRONMENT IN THE HIGHER EDUCATION SERVICES MARKET IN UZBEKISTAN

Abstract. The article analyzes the competitive environment in the higher education services market of Uzbekistan. At the same time, scientific conclusions are presented based on a comparative analysis of the dynamics of indicators reflecting the competitive environment in the higher education services market and their values by region. Based on the analysis results, scientific proposals and recommendations on priority areas for the development of the higher education system have been developed.

Keywords. Higher education services, education market, competitive environment, non-state universities, higher education system, attractiveness, infrastructure, competitiveness.

Kirish. Bugunni kunda ta'lism inson faoliyatining barcha sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlilikni oshirish, turmush darajasini ko'tarishning muhim shartiga aylanib bormoqda. Olyiv ta'lismning ijtimoiy mas'uliyati ko'p jihatdan har bir insonning tez o'zgaruvchan mehnat bozorida xaridorgir bo'lib qolishi, rivojlanib borayotgan innovatsion iqtisodiyotda to'laqonli ishtirok etishi va shu yo'l bilan o'z farovonligini hamda umuman jamiyat farovonligini ta'minlash imkonini beradigan malakaviy va ijtimoiy ko'nikmalar olishida namoyon bo'ladi. Ko'pgina mamlakatlarda oliv ta'lismning oshib borayotgan rolini hisobga olgan holda uni rivojlantirish strategiyasi milliy strategiya ustuvorliklari sifatida belgilangan va u oliv ta'lism sifatini va raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgandir.

Jahon mehnat bozoridagi tendensiyalar oliy ma'lumotli mutaxassislarini tayyorlash tuzilmasi, ularning bilim va ko'nikmalariga bo'lgan talabni o'zgartirdi. Endilikda yangi bilimlarni amalda qo'llay oladigan, muayyan kasb sohasidagi innovatsion imkoniyatlar ko'lамини tushuna oladigan kadrlarga talab yuqori. Zamonaviy bitiruvchi nafaqat joriy xo'jalik va ishlab chiqarish masalalarini malakali hal qiladigan, balki to'g'ri qaror qabul qila oladigan tahliliy qobiliyatga ega, yuqori darajali mutaxassis bo'lishi lozim.

O'zbekistonning zamonaviy industrial dunyoga tobora shiddat bilan qo'shilib borishi undan tez o'zgarib turuvchi mehnat bozori ehtiyojlariga moslashishga qodir bo'lgan oliy ta'lim tizimini yaratishni qat'iy talab qilmoqda. Oliy o'quv yurtlarini rivojlanirish va ular tomonidan sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatilishini rag'batlantiruvchi raqobatni kuchaytirish davr talabiga aylandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'lim xizmatlari bozori rivojlanishi, oliy ta'lim tizimida raqobatbardoshlikni ta'minlashning fundamental asoslari xorijlik olimlar, jumladan, J.M.Keyns, A.Marshall, F.Kotlyar, A.Pigu, Y.A.Shumpeter, P.Porter, P.Druker, B.S.Santo, G.Mensch, G.P.Pisano¹ va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanishi, oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish masalalarini tadqiq qilishga MDH davlatlari olimlaridan V.S.Bajenova, N.A.Bonyushko, V.V.Pilichev, I.V.Kotlyarevskaya, A.A.Efremova, T.G.Panichkina, Ye.M.Beliy, I.B.Romanova, Yu.Yu.Savchenko, O.A.Kovalchuk² kabilarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Ta'lim xizmatlari bozori shakllanishi, mehnat bozori rivojlanishi, kadrlar marketingi tadqiqotiga o'zbekistonlik olimlardan Q.X.Abduraxmonov, M.Q.Pardaev, M.M.Muxammedov, G.Axunova, A.B.Vaxabov M.X.Saidov, T.Z.Teshaboev, A.A.Maxmudov, E.T.Odilov, N.U.Arabov va boshqalarning ilmiy ishlari bag'ishlangan³. Alohida ta'lim xizmatlariga

¹ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Маршалл А. Принципы экономической науки / А.Маршалл: В 3 т. - М.: Прогресс-Т.З. 1984. -119 с.; Котляр Ф. Основы маркетинга. – М.: Изд. Дело, 2006; Пигу А. Экономическая теория благосостояния / Пигу А.: В 2 т. - М.: Прогресс - Т.2- 1985. – 240 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст] / Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Порттер М. Конкуренция / Пер. с англ. – М.: ИД «Вильямс», 2005 г. – 682-стр.; Друкер П. Бизнес и инновации [Текст] / П. Друкер: пер. с англ. – М.: Вильямс, 2007. - 350 с.; Санто Б.С. Инновация как средство экономического развития / Санто Б.С. – Москва: Прогресс, 1990 . – 295 с.; Mensch, G. Stalemate in technology : innovations overcome the depression / G. Mensch.

² Баженова В.С. Непрерывное образование в условиях трансформации экономической системы. – М.: Изд. Рос. экон. акад, 2000; Бонюшко Н. А. Повышение качества образовательных услуг на основе создания научно-исследовательских университетов / Н. А. Бонюшко // Экономические науки. – 2009. – № 3. – С. 388-391; Пиличев В.В., Котляревская И.В. Совершенствование инновационной деятельности в высших учебных заведениях / В.В. Пиличев, И.В. Котляревская. – Екатеринбург. – УГТУ-УПИ. – 2007. – 170 с.; Ефремова А.А. Формирование инфраструктуры и механизмов развития регионального рынка образовательных услуг / А.А. Ефремова. – Автореф. канд. экон. наук: 08.00.05. – СПб. – 2010. – 25 с.; Савченко Ю.Ю. Инновационный маркетинг в системе высшего образования /Ю.Ю. Савченко // «Актуальные проблемы научного знания в XXI веке»: Сб. статей Четвертой (заочной) межрегиональной научно-практической конференции. – Барнаул. – Изд-во Алт. ун-та. – 2010. – с. 47-56; Ковалчук О.А. Динамика и тенденции развития научно-инновационного потенциала высшей школы / А.О. Ковалчук В.П. Леонова Вестник Ассоциации ВУЗов туризма и сервиса. – 2012. – № 1. – С. 31-40.

³ Абдурахманов К.Х., Додобоев Ю.Т., Аллахвердиева Л.М. Современный менеджмент и реформирование системы образования в Узбекистане. Учебное пособие. – Т.: ТГЭУ, РЭА, 2006. 88-89 с.; Пардаев М.Қ. ва бошқалар. Таълим хизматлари ва уларнинг самарадорлигини ошириш масалалари. Монография “Инновацион ривожланиш наширёт манба уйи”, 2020. – 256 б.; Мухаммедов М.М. и др. Экономика торговли. Самарқанд. 1998. — С. 282; Ахунова Г. Ўзбекистонда таълим хизматлари маркетинги муаммолари. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим Вазирлиги, Тошкент давлат иқтисодиёт университети. – Т.: Иқтисод-Молия, 2005. – 244 б.; Вахабов А.Б., Бахтиёров Б.Б. Инсон капиталининг инвестицион самарадорлигини баҳолашнинг услубий асослари // Миллий иқтисодиёт тармокларида олий маълумотли кадрларга бўлган эҳтиёжни баҳолаш ва прогностазтириш. Илмий мақолалар тўплами. – Т.: Лессон Пресс. 2017.5-12-б.; Saidov M.X. Узбекистан: инвестиции в человеческий капитал, партнёрства в сфере образования. – М.: Книжный дом газеты «Труд», 2006. – 243 с.; Олий ўқув юртларида инновацион фаолиятни такомиллаштириш йўллари. – Тошкент: Фан ва технология, 2007. – 129 б; А.А.Махмудов. Олий таълим муассасаларида молиявий ресурсларни бошқариш механизмини такомиллаштириш. // Дисс. PhD. – Т.: ТДИУ. 2019. 20-21-б.; Одилов Э.Т. Ўзбекистон Республикаси таълим тизимида бюджет ташкилотларида молиявий

bag‘ishlangan tadqiqotlar qatorida A.A.Xamidova “Ta’lim xizmatlar bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari”, S.A.Babanazarova “Ta’lim xizmatlar samaradorligi va sifatini oshirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusida, G.S.Sadullaeva “Oliy ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning marketing strategiyasi” mavzularida dissertatsiyalarini yozib himoya qilganlar. Ushbu ilmiy tadqiqotda O‘zbekiston oliy ta’lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini tahlili amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ob’ekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi hududlarida faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalari faoliyati tanlangan bo‘lib, tahlil jarayonida tizimli va kompleks yondashuv, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, ilmiy abstraksiyalash, statistik ma’lumotlarni guruhlash, kuzatuv, taqqoslash, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy sharti ta’lim xizmatlarining miqdor jihadidan kengayishi va sifat jihatidan o’sishi hisoblanadi. Lekin u har doim ham mehnat bozorini dinamik rivojlanishining zamonaviy talablariga to‘liq javob bermaydi. CHunki ta’limning rivojlanish sur’atlariga turli-tuman omillar kuchli ta’sir ko’rsatadi. Birlamchi shular bo‘yicha to‘xtalib o’tmoqchimiz.

Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini tahlil qilish jarayonida tashqi va ichki omillarni aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Tashqi omillar oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga bevosita ta’sir ko’rsatmaydi, ammo ular oliy ta’lim muassasasining raqobatbardoshligini baholash va uning raqobat strategiyasini belgilash jarayonida hisobga olinishi kerak.

O’z navbatida, ichki omillar oliy ta’lim muassasasining o’z raqobatbardoshligini ta’minlashda potentsial imkoniyatlar vazifasini bajaradi.

Oliy ta’lim muassasalari rahbariyatining vazifasi tashqi omillarni (megamuhit, makro muhit va mikro muhit) tahlil qilish va ichki muhit omillarini xizmatlar ko’rinishidagi raqobatdosh ustunliklarga aylantirishdan iborat.

Yuqorida sanab o’tilgan omillarning barchasi oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligining umumi darajasiga ham ijobjiy, ham salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Mamlakat oliy o’quv yurtlari uchun makro-omillar bir xil, ammo har bir oliy ta’lim muassasasining o’ziga xos tashqi ta’sir omillari “majmui” mavjud bo’lib, ta’lim muassasasining samaradorligiga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

- davlat organlari tomonidan ta’lim tizimini tartibga solish;
- ta’lim xizmatlarini ko’rsatish jarayonini qonunchilik bilan ta’minlash va tartibga solish;
- raqobatchilarining strategiyalari;
- bozor infratuzilmasi;
- mehnat bozori sharoiti;
- mehnat bozorida universitet bitiruvchilariga talab;
- ijtimoiy-demografik va boshqalar.

Ta’lim sohasidagi ichki omillarga quyidagilar kiradi:

- ta’lim xizmatlarining sifati va samaradorligi;
- tashkilotni boshqarish;
- kadrlar tayyorlash sifati;
- oliy ta’lim muassasasining ishbilarmonlik faolligi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- oliy ta’lim muassasalarining rivojlantirish strategiyalari;
- moddiy-texnika bazasi;
- axborot bazasi;

назоратни такомиллаштириш. Иктисад фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Т.: ТДИУ. 2012, 26 б; Н.У.Арабов. Ўзбекистон Республикасида меҳнат бозори инфратузилмасини ривожлантириш самарадорлигини ошириш. Monografiya. – Т.: “Фан ва технология”, 2017. – 272 б.

- tashkilotning moliyaviy siyosati;
- xodimlar va stajyorlarni rag‘batlantirish;
- oliy ta’lim muassasasining korporativ madaniyati;
- oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini boshqarish tizimi;
- professor-o‘qituvchilarning malaka darajasi va boshqalar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimini, xususan, oliy ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalgalashadi. Ishda O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari bozoridagi raqobat muhiti tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, respublikamizda faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalari soni 2018 yilda 98 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilda bu ko‘rsatkich 219 taga etdi, ya’ni 2,2 martaga, ularda tahsil olayotgan talabalar 1314,5 ming kishini tashkil etgan holda tegishli davr oralig‘ida 3,6 martaga ko‘paydi (1-jadval).

1-jadval**O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalari¹**


Ko‘rsatkichlar	yillar						2018-2023 (martaga)
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
Oliy ta’lim muassasalari soni, birlik	98	119	127	154	191	219	2,2
Nodavlat oliy ta’lim muassasalari soni, birlik	1	4	5	17	42	90	90,0
Xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari soni, birlik	10	16	18	25	26	31	3,1
Oliy ta’lim tashkilotlari talabalari soni, ming kishi	360,2	440,9	571,5	808,4	1042,1	1314,5	3,6
Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari soni, ming kishi	70,3	70,8	83,9	103,9	102,4	184,1	2,6
SHu jumladan: kunduzgi bo‘limda, ming kishi	313	360,1	441,9	553,9	622,6	661,8	2,1
kechki bo‘limda	1,2	7,3	11,5	26,5	37,7	45,1	37,6
sirtqi bo‘limda	46	73,6	118,1	228	381,8	607,6	13,2
Har 10 000 aholiga to‘g‘ri keladigan OTM talabalari soni	110	130	165	229	289	357	3,2
OTM magistraturasiga qabul qilingan talabalar, ming kishi	5,7	9,4	9,9	15,8	6,9	15,1	2,6
OTM professor-o‘qituvchilari soni	26,7	30,6	32,1	37,4	41,7	45,2	1,7

“Oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari, shuningdek investitsiyalarni jalb qilgan holda nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallari faoliyatini tashkil etish orqali oliy ta’limda raqobat muhitini yaratish” O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyanining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanganligi nodavlat olliy ta’lim muassasalari sonining 2018 yildagi bir birlikdan 2023 yilga kelib 90 taga etishiga asos yaratdi. SHuningdek, mazkur davr oralig‘ida

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi maъlumotlari aсосида тузилган.

xorijiy oliy ta'lif tashkilotlari soni 3,1 marotabaga oshib, 2018 yildagi o'n birlikdan 2023 yilga kelib 31 taga etdi.

Ammo oliy ta'lif muassasalari soni mamlakatimiz hududlari doirasida tekis taqsimlanmaganligi hududiy oliy ta'lif xizmatlari bozorida raqobat shart-sharoitlarining notejisligidan dalolat bermoqda. Xususan, nodavlat oliy ta'lif muassasalarining 61 foizi Toshkent shahrida joylashgan (1-rasm).



1-rasm. Nodavlat oliy ta'lif muassasalarining hududlar bo'yicha taqsimoti

SHuningdek, OTMlarning kunduzgi bo'limlarida o'qiydigan talabalar soni 2018 o'quv yilda 313 mingtani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023 yilga kelib 2,1 marotaba o'sib, 661,8 mingtaga etdi. Sirtqi ta'lif shakliga e'tiborning kuchaytirilishi natijasida 2018-2023 yillar davomida oliy ta'lif muassasalari sirtqi ta'lif shaklida tahsil olayotgan talabalar sonining 13,2 marotaba o'sishiga sabab bo'lib, 2023 yilga kelib 607,6 ming nafar talabaga etdi.


Har 10000 aholiga to'g'ri keladigan talabalar soni 2018 yilda 110 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich 357 taga etdi, ya'ni 3,2 marotaba oshdi. Tahlil etilayotgan yillarda jami qabul qilingan talabalar soni – 3,6 martaga, bitirgan mutaxassislar soni 2,6 marotabaga, OTM magistraturasiga qabul qilingan talabalar soni 2,6 marotabaga oshgan.

Hozirgi kunda har bir mamlakat ijtimoiy rivojlanish tamoyillari zamonaviy kasbiy bilimga ega bo'lish shart-sharoitlarini yaratishning yangi bosqichiga o'tishni zaruratga aylantirdi. Shu sababli, keyingi yillarda respublikamizda ham OTMlar soni doimiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, ularning soni 2020/2021 o'quv yilida 2015/2016 o'quv yiliga nisbatan deyarli 84,1 %ga oshdi. Hududlar kesimida ham OTMlar soni Navoiy va Namangan viloyatlaridan tashqari barcha viloyatlarda o'sish tendensiyasiga ega. Xususan, eng ko'p OTMlar soni Toshkent shahri (51 ta) va Samarqand (12 ta), Farg'onha (10 ta), Surxondaryo (7 ta), Qashqadaryo (6 ta), Toshkent (8 ta), Andijon (6 ta), Buxoro (5 ta) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (9 ta) hissasiga to'g'ri keladi (2-jadval).

2-jadval

Oliy ta'lim muassasalarining hudular kesimidagi dinamikasi

Klassifikator	yillar								2018-2023 (martaga)	
	2018		201 9	202 0	202 1	202 2	2023			
	Otmalar soni	jamiga nisbatan %da					Otmalar soni	jamiga nisbatan %da		
O'zbekiston Respublikasi	98		119	127	154	191	219		2,2	
Qoraqalpog'iston R.	6	6,1	9	9	10	10	12	5,5	2,0	
Andijon v.	4	4,1	5	6	8	10	10	4,6	2,5	
Buxoro v.	5	5,1	5	5	6	11	13	5,9	2,5	
Jizzax v.	2	2,0	3	3	4	5	5	2,3	2,5	
Qashqadaryo v.	3	3,1	6	6	6	9	11	5,0	3,6	
Navoiy v.	2	2,0	2	2	2	4	4	1,8	2,0	
Namangan v.	3	3,1	3	3	3	6	9	4,1	2,9	
Samarqand v.	8	8,2	11	12	14	15	15	6,8	1,8	
Surxondaryo v.	7	7,1	7	7	7	7	8	3,7	1,1	
Sirdaryo v.	1	1,0	2	2	2	3	3	1,4	2,9	
Toshkent v.	5	5,1	5	8	8	10	13	5,9	2,5	
Farg'ona v.	7	7,1	10	10	11	11	13	5,9	1,8	
Xorazm v.	3	3,1	3	3	6	8	8	3,7	2,6	
Toshkent sh.	42	42,9	48	51	67	82	95	43,4	2,2	



2-rasm. Oliy ta'lim muassasalarining hududlar bo'yicha taqsimoti

Oliy ta'lim muassasalari sonining bunday sur'atlar bilan o'sishi O'zbekistonda ko'pchilik xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning oliy ma'lumotli mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda, iqtisodiyotda band bo'lganlar tarkibida oliy ma'lumotli mutaxassislar ulushini ko'paytirishda muhim bosqich hisoblanadi.

Xulosa. Mamlakatimizda bugungi kunda oliy ta'limni ommaviylashtirish, shuningdek, aholini ta'lim xizmatlaridan foydalanish sohasidagi ehtiyojlarining o'zgartirishi tendentsiyasi

kuzatilmoqda. Bu jarayon, bиринчи navbatda, zamonaviy mehnat bozori tomonidan taqdim etilgan inson kapitaliga yangi talablarning shakllanishi bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan, oliy ma'lumot bo'lajak mutaxassisni keyinchalik ishga joylashish, demakki, uning shaxsiy iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishning asosiy kafolatlaridan biridir.

Bundan tashqari, bozorning hozirgi holati uzluksiz ta'lim tamoyiliga asoslanadi, bunda asosiy mutaxassislikni egallash mutaxassisning ikkinchi oliy ma'lumot olish yoki magistratura va doktoranturaga o'qishga kirish istagi bilan birga keladi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ushbu turi ham ish beruvchilar tomonidan rag'batlantiriladi va shu tariqa bilimlari muntazam ravishda oshirib boriladigan mutaxassislar shakllanadi. Yuqorida sanab o'tilgan tendentsiyalar oliy ta'lim xizmatlari iste'molchilari sonining ko'payishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, bu esa tabiiy ravishda oliy o'quv yurtlarining faoliyatida шз aksini topdi, ya'ni ta'lim dasturlari soni va sifati ham oshdi. Bu borada har bir mutaxassisning mehnat bozorida individual raqobatbardoshligini oshiradigan sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatishga bo'lgan aholi talabini qondirishga qodir ta'lim muassasalarining roli ortib bormoqda.

O'sib borayotgan talab natijasida bugungi kunda ta'lim xizmatlari bozorida turli darajadagi va mulkchilik shaklidagi ko'plab oliy o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatmoqda, hamda ta'lim tizimining bozor munosabatlariga o'tishiga sharoit yaratuvchi raqobat muhitining kuchayishiga olib keldi. Binobarin, oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish va boshqarish zarurati ham ortib bormoqda. Ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlik tushunchalarini o'rganish bizga bozordagi mavqeini saqlab qolish va yangisini egallashning asosiy omillaridan biri sifatida oliy ta'lim muassasasining yuqori darajadagi raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlash zarur degan xulosaga kelishga imkon beradi. Aniq tuzilgan rivojlantish strategiyasiga, shuningdek, yuqori salohiyatga ega abituriyentlarni o'qishga jalb etish, samarali ta'lim dasturlarini taklif qilish, mavjud resurslarni samarali taqsimlashni amalga oshirish, ularning asosiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, oliy ta'limni rivojlantirish imkonini beruvchi infratuzilmaga ega bo'lish orqali oliy muassasalar nafaqat mamlakat ichida, balki jahon ta'lim xizmatlari bozorida yetakchi o'rinni egallashi mumkin.

Shunday qilib, uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvoffiq:

- oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;
- ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;
- oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;
- yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;
- oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash;
- oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Баженова В.С. Непрерывное образование в условиях трансформации экономической системы. – М.: Изд. Рос. экон. акад, 2000.
2. Бонюшко Н. А. Повышение качества образовательных услуг на основе создания научно-исследовательских университетов / Н. А. Бонюшко // Экономические науки. – 2009. – № 3. – С. 388-391.
3. Пиличев В.В., Котляревская И.В. Совершенствование инновационной деятельности в высших учебных заведениях / В.В. Пиличев, И.В. Котляревская. – Екатеринбург. – УГТУ-УПИ. – 2007. – 170 с.

4. Ефремова А.А. Формирование инфраструктуры и механизмов развития регионального рынка образовательных услуг / А.А. Ефремова. – Автореф. канд. экон. наук: 08.00.05. – СПб. – 2010. – 25 с.
5. Савченко Ю.Ю. Инновационный маркетинг в системе высшего образования /Ю.Ю. Савченко // «Актуальные проблемы научного знания в XXI веке»: Сб. статей Четвертой (заочной) межрегиональной научно-практической конференции. – Барнаул. – Изд-во Алт. ун-та. – 2010. – с. 47-56.
6. Ковальчук О.А. Динамика и тенденции развития научно-инновационного потенциала высшей школы / А.О. Ковальчук В.П. Леонова Вестник Ассоциации ВУЗов туризма и сервиса. – 2012. – № 1. – С. 31-40.